

“O‘zavtosanoat” AJ Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti tomonidan tashkil etilgan Trening mashg‘uloti

2025-yil 27-fevral

Toshkent shahri

“O‘zavtosanoat” AJ Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti xodimlari tomonidan **2025-yil 27-fevral** kuni **Odob-axloq kodeksi** (mehmondoslik, sovg‘alar), **Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish** bo‘yicha seminar trening o‘tkazildi.

Ishtirokchilar: “O‘zavtosanoat” AJ xodimlari hamda ZOOM platformasi orqali tizim korxonalari (“UzAuto Motors” AJ, “O‘zChasys” MChJ, “Auto Spring Components” MChJ)ning xodimlar bilan ishlash bo‘limlari va yuridik bo‘limlar xodimlari.

Trening tashkilotchilari: “O‘zavtosanoat” AJ Komplayens departamenti Komplayens xizmati rahbari A.Odilov, departament bosh menejerlari E.Mamanov, Sh.Sidiqov, S.Inoyatullayev.

“O‘zavtosanoat” AJ Komplayens departamenti Komplayens xizmati rahbari A.Odilov tomonidan ushbu trening hozirda dolzarb bo‘lib kelayotgan manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, odob axloq qoidalari, sovg‘alar berishda va olishda xodimlarning xatti-harakatlari bo‘yicha qisqacha tushuntirishlar berib o‘tdi.

Odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish

Jamiyat xodimlari tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat **Komplayens departamenti** yoki **Odob-ahloq komissisi** tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyatga ishga qabul qilingan xodimlar Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi tomonidan mazkur Odob-ahloq qoidalari bilan **tilxat asosida imzo qo‘ydirgan holda** tanishtiriladi.

Mazkur Odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari bo'yicha **xizmat tekshiruvi** jamiyat rahbarining ko'rsatmasiga muvofiq **Komplayens departamenti** tomonidan o'tkaziladi.

Xizmat faoliyatiga oid odob-ahloq qoidalari

✓ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga so'zsiz rioya etish;

✓ jamiyat sha'nini e'zozlash;

✓ mehnat jamoasida ishchanlik muhitini shakllantirish va uni mustahkamlashga ko'maklashish;

✓ mehnat jamoasida hamkasblarining sha'ni va qadr-qimmatini obro'sizlantiradigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini muhokama qilishdan tiyilishi kerak.

Jamiyat xodimlari mehnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtda xulq-atvorning quyidagi umumiy qoidalariga amal qilishi lozim:

– jamiyat obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilish, ahloq normalariga doimiy rioya qilish;

– mas'uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shiorga aylantirish;

– murakkab vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko'maklashish;

– xushmuomalalik, e'tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda va biznes hamkorlarda Jamiyatga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg'otish;

– fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qat'i nazar, ular bilan bir xil, samimiy, odob doirasida munosabatda bo'lish;

– jamiyatda ahloqning umume'tirof etilgan qoidalariga amal qilish.

Манфаатлар тўқнашувини тартибга солиш ва аниқлашда иштирок этадиган ходимларга ишониб топширилган ёхуд уларга касбий, хизмат ёки меҳнат мажбуриятларини бажариши муносабати билан маълум бўлиб қолган шахсларнинг **ШАХСГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАРИНИ ОШКОР ЭТИШГА ЙЎЛ ҚЎЙИЛМАЙДИ**



Давлат органларининг ёки бошқа ташкилотларнинг одоб-ахлоқ комиссияси мавжуд ёки эҳтимолий манфаатлар тўқнашувлари тўғрисида ҳар ярим йилда хулоса қабул қилади ҳамда уларни тартибга солиш бўйича кўрилган чораларнинг етарлиligини (тўғрилигини) кўриб чиқади

“O‘zavtosanoat” AJ Komplayens departamenti bosh menejerlari E.Mamanov tomonidan jamiyatning odob axloq qoidalariga ish vaqtida va ishdan tashqari holatlarda belgilangan tartib qoidalar haqida ishtirokchilarga tushuntirishlar berib o‘tdi.

ЖАВОБГАРЛИК

Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида хабар бермаслик **БҲМнинг 3 бараваридан 5 бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади**

Агар ушбу ҳуқуқбузарлик 1 йил давомида такроран содир этилса, **БҲМнинг 5 бараваридан 10 бараваригача миқдорда жарима қўлланилади**

Мансабдор шахслар томонидан мавжуд ёки эҳтимолий манфаатлар тўқнашувини тартибга солиш юзасидан чоралар кўрмаганлик **БҲМнинг 5 бараваридан 10 бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади**

Агар ушбу ҳуқуқбузарлик 1 йил давомида такроран содир этилса, **БҲМнинг 10 бараваридан 15 бараваригача миқдорда жарима қўлланилишига сабаб бўлади**

УШБУ
ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР
**ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ
СОҲАСИДА СОДИР
ЭТИЛСА**, МАНСАБДОР
ШАХСЛАРГА **БҲМНИНГ
20 БАРАВАРИДАН
30 БАРАВАРИГАЧА**
МИҚДОРДА ЖАРИМА
ҚЎЛЛАНИЛАДИ



“O‘zavtosanoat” AJ Komplayens departamenti bosh menejerlari Sh.Sidiqov tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi siyosati va uning muhimligi har bir xodim manfaatlar to‘qnashuvi holati bo‘yicha qachon va qanday oshkor qilishligi oshkor qilish tartib qoidalari, manfaatlar to‘qnashuvining oshkor qilinishida ko‘maklashishga, tushuntirish berishga mas’ul xodimlar belgilanganligi tushuntirdi.

Sovg‘alar va ko‘ngilochar xarajatlar reestri

Mazkur Protseduraning 1-ilovasida ko‘rsatilgan qoidalarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyat kunidagi kursi bo‘yicha qiymati **50 AQSH dollari ekvivalentidan ortiq** bo‘lgan barcha sovg‘alar yoki ko‘ngilochar xarajatlar ushbu Protseduraning 2-ilovasiga muvofiq reestrda ro‘yxatga olinishi kerak.

Komplayens bo‘yicha mutaxassis/komplayens xizmati

- * vaqti-vaqti bilan reestri ko‘rib chiqadi, boshqaradi va hisobot beradi;
- * xavf darajasi yuqori hisoblangan xodimlar (va bo‘linmalar) bilan treninglar o‘tkazadi.

Faoliyatni amalga oshirish vaqtidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha **50 AQSH dollari**dan ortiq ekvivalentdagi sovg‘alar yoki vakillik xarajatlariga alohida e’tibor qaratish lozim. **Bunday hollarda, komplayens bo‘yicha mutaxassis yoki Komplayens xizmati bilan maslahatlashish zarur.**

Komplayens bo‘yicha mutaxassis yoki Komplayens xizmati quyidagi hujjatlarni qo‘shimcha xat yoki otkritkaga kiritish kerakligi yuzasidan qaror qabul qiladi:

- qabul qiluvchi sovg‘a yoki vakillik xarajatlarini olish uchun tashkilotning ruxsatiga ega bo‘lishini ta’minlash;
- sovg‘a olish/tadbirda ishtirok etish tashkilotning siyosatini buzmasligini yuzasidan tekshirish so‘rovi yuborish.

Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanganda bartaraf etish choralari hamda uning oldini olishda nimalarga e'tibor berilishi lozimligini, manfaatlar to'qnashuvini qasddan oshkor qilmagan yoki yashirgan xodimlarga nisbatan qonunchilikda ham choralar ko'rilishi belgilanganligi haqida tushuntirishlar berib o'tildi.

Ta'sir choralari

Xodimlar tomonidan ushbu tartib-taomillarning buzilishi tekshiruv o'tkazilishi va javobgarlik (shu jumladan, mehnat shartnomasini bekor qilish/lavozimidan ozod etish)ga olib kelishi mumkin bo'lgan o'ta jiddiy qoidabuzarlik, deb hisoblanadi.

Kompaniya nomidan ish olib boradigan uchinchi shaxslar ushbu tartib-taomillarni buzgan taqdirda, jarimaga tortilishi (sanksiyalar) va ular bilan ishbilarmonlik munosabatlari tugatilishi mumkin.

Agar uchinchi shaxslar tomonidan nomaqbul sovg'alar/vakillik xarajatlari **taklif qilinsa**, Komplayens bo'yicha mutaxassis va xarid uchun mas'ul bo'lim uchinchi shaxsga nisbatan tegishli **choralar ko'rish to'g'risida qaror qabul qiladi.**

Ilova 2: Reyestr

Ilova 3: Berish

Ilova 4: Olish

1	Majburiyat
	Jamiyat xodimlari o'zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishida va (yoki) jamiyat manfaatlarini ifodalashda ushbu Siyosatda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o'zlarini saqlashlari va habar berishlari shart.
2	Deklaratsiyalash tartibi
	Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni har yili deklaratsiyasi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: jamiyat xodimlari har yili 15-fevralgacha mazkur Siyosatning 3-ilovasiga muvofiq shaklda manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi haqidagi arizani to'liq va to'g'ri to'ldirishlari, to'ldirilgan arizani Xodimlar bilan ishlash boshqarmasiga taqdim qilishlari lozim. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi 10 martgacha manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatgan xodimlarni aniqlash uchun manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqida olingan arizalarni tahlil qiladi.
3	Eslatma
	Manfaatlar to'qnashuvi haqida oldindan xabar berilganida masala hal etilishi, xabar bermaslik mehnat shartnomasini bekor qilish/lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan intizomiy choralarga olib kelishi mumkin.

Trening yakunida savol javoblarga o‘tildi, ishtirokchilar savollariga Komplayens departamenti xodimlari tomonidan javoblar berilib seminar trening o‘z yakuniga yetdi.

Tadbirda **85 nafar** xodimlar ishtirok etdi.

Foto lavhalar, ishtirokchilar ro‘yxati ilova qilinadi.

“O‘zavtosanoat” AJ

Komplayens xizmati rahabri



A.Odilov

Bosh menejer



E.Mamanov

Bayonlashtirdi:



S.Inoyatullayev